Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” atamasi nafaqat terminologik tushuncha, balki ko‘p qirrali va keng qamrovli ilmiy-amaliy konsepsiyani anglatadi. Bu konsepsiya resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, atrof-muhit iqtisodiyotini rivojlantirish, “yashil” siyosat yuritish, global iqtisodiy munosabatlarning yangi modelini shakllantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarga asoslangan rivojlanishni o‘z ichiga oladi. “Yashil iqtisodiyot” o‘zining shakllanish jarayoni, tarixiy bosqichlari va nazariy asoslari bilan zamonaviy iqtisodiy tafakkurning ajralmas qismiga aylangan.

Tabiiy resurslarning cheklanganligi va ularni to‘liq qayta tiklab bo‘lmasligi bilan bog‘liq ekologik muammolar insoniyat faoliyatining barcha yo‘nalishlariga, ayniqsa, iqtisodiy faoliyatga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan. Bu holat XX asrning 60–70-yillaridan boshlab ilmiy doiralarda keng muhokama qilina boshladi. Aynan shu davrda iqtisodiy adabiyotlarda yangi ilmiy yo‘nalish – “atrof-muhit iqtisodiyoti” shakllandi. Bu yo‘nalishda iqtisodiy faoliyatning ekologik oqibatlari tashqi samara – eksternal effektlar sifatida ko‘rib chiqila boshladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ekologik muammolarni iqtisodiy munosabatlar tizimida hal etish va ular asosida xalqaro mexanizmlarni ishlab chiqish zarur deb topildi. Masalan, issiqxona gazlarini chiqindilari bilan bog‘liq savdo tizimining yaratilishi shunday mexanizmlardan biri sifatida ko‘riladi.

Keyinchalik, 1980–1990-yillarda atrof-muhit muammolarini faqat iqtisodiy mexanizmlar orqali hal qilish yetarli emasligi ayon bo‘lib, ushbu muammolarga fanlararo – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik yondashuv zarurligi ta‘kidlandi. Shu asosda “ekologik iqtisodiyot” (ecological economics) tushunchasi yuzaga chiqdi. Bu yondashuv yagona metodologik asosda uch sohani – iqtisod, jamiyat va tabiatni birlashtirishga harakat qildi. Ammo bu jarayonda bir qator muammolar va qarama-qarshiliklar yuzaga keldi, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bilan ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash dolzarb masalaga aylandi.

Shunga qaramay, ekologik yondashuvlar barqaror rivojlanish tamoyillari bilan bevosita bog‘liqligi sababli, jamoatchilik orasida ham, siyosiy qarorlar darajasida ham keng qo‘llanila boshladi. Bu holat ekologik iqtisodiyotda ilgari surilgan tamoyillarning real iqtisodiy siyosatga singdirilishi orqali amalga oshdi. Aynan shu asosda “yashil iqtisodiyot” tushunchasi shakllana boshladi va ilk bor 1989-yilda Buyuk Britaniya hukumati buyurtmasi asosida yetakchi iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha hisobotda rasman ishlatildi.



Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologik iqtisodiyotdan farqli o'laroq, "yashil iqtisodiyot" ko'proq amaliy, real sektor bilan bevosita bog'liq tusga ega. U tor doiradagi nazariy yondashuv emas, balki konkret sohalar – energetika, qishloq xo'jaligi, innovatsiyalar, transport va boshqa tarmoqlar bo'yicha ekologik barqarorlikka asoslangan faoliyatni anglatadi. Buni "green economy" atamasida ishlatilgan "economy" – ya'ni real iqtisodiy faoliyatga doir tushunchaning o'zi tasdiqlaydi. Demakki, yashil iqtisodiyot atamasi ortida nafaqat ilmiy nazariya, balki uni real sektor orqali amaliyotga tadbqiq etish istagi mujassam.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati va uni barqarorlashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy fikrning markazida turibdi. Bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatni uyg'unlashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlar bilan ajralib turadi.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasi dastlab BMTning Atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha 1992-yildagi Rio-de-Janeyro konferensiyasi doirasida ilmiy va siyosiy muhitga joriy etilgan bo'lib, keyinchalik 2008-yilda Global Yashil O'sish Institutining tashkil topishi bilan yanada tizimlashtirildi. Bunday model resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish va iqtisodiy faoliyatning tabiiy muhitga zarar yetkazmasligi tamoyillariga asoslanadi.

Mashhur iqtisodchi Muhammad Yunus o'z asarlarida yashil iqtisodiyotni ijtimoiy tadbirkorlik bilan bog'laydi, ya'ni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan daromad olish yo'llarini ishlab chiqish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligini isbotlagan. Jeffrey Sachs esa ekologik barqarorlikni ta'minlashda milliy strategiyalar va xalqaro hamkorlik muhimligini ta'kidlab, yashil texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanishi lozimligini ko'rsatgan.

Yevropa Ittifoqi tajribasiga murojaat qilsak, iqtisodchi Mariana Mazzucato "Davlat – innovatsiyalar dvigateli" nomli ishida ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat faolligi, soliq imtiyozlari va strategik investitsiyalar muhim o'rin tutishini qayd etadi. Mazzucato fikricha, yashil o'sish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston kontekstida esa iqtisodchi O'.X. Xudoyberganov va M.Usmonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiyotning "yashillashtirilishi" resurslardan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga xizmat qilishini ko'rsatgan. Jumladan, quyosh, shamol va biomassa kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali mamlakat energetik mustaqilligiga erishish va ekologik xavfsizlikni oshirish mumkinligi isbotlangan.

Xitoy tajribasini o'rgangan olimlardan Ma Jun esa sanoat siyosatini ekologik mezonlar asosida yo'naltirish, ekologik soliq va kredit mexanizmlaridan foydalanish orqali yashil iqtisodiyotni barqarorlashtirish mumkinligini qayd etgan. U Xitoydagi "Yashil kredit siyosati" orqali korxonalarni atrof-muhitga nisbatan javobgarlikka undash natijasida havoni ifloslantiruvchi ishlab chiqarish hajmi keskin kamayganini tahlil qilgan.

Shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yashil iqtisodiyot bandlik yaratish, ayniqsa, qishloq joylarida ijtimoiy tenglikni kuchaytirish imkonini berishini isbotlaydi. XMT hisobotlarida qayd etilishicha, yashil o'sish strategiyalari orqali dunyo bo'yicha millionlab yangi ish o'rinlari yaratilishi mumkin.

Yuqoridagi adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muvozanatni tiklash, balki iqtisodiy taraqqiyotning uzoq muddatli kafolati sifatida ham ko'rilmogda. Bu esa O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ayniqsa muhim, chunki resurslardan oqilona foydalanish, eksport salohiyatini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash milliy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omildir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolaga oid, aniqrog'i, "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq adabiyotlarni batafsil o'rganish va hozirgi holatini chuqur tahlil qilish zarurati uning nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi. Bu orqali ushbu yo'nalishning iqtisodiy subyektlar o'rtasida ahamiyatini keng ommalashtirish mumkin bo'ladi. Aynan shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyotning bosh vazifasi sifatida jamiyatda ekologik toza ishlab chiqarishning zarurligi va ahamiyati to'g'risidagi dunyoqarashni shakllantirish hamda tegishli takliflar ilgari surish hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy jamiyatda tabiat resurslaridan foydalanishga bo'lgan yondashuv tobora o'zgarib bormogda. Ayniqsa, tabiiy resurslarni rekreatsion maqsadlarda va ilmiy tadqiqotlar uchun saqlab qolish zaruriyati tobora dolzarb tus olmogda. Bu esa ekologik mas'uliyatga asoslangan va kelajak avlodlar manfaatini ko'zlovchi ilmiy konsepsiyalarning shakllanishiga zamin yaratdi. Ushbu konsepsiyalarni real hayotga tatbiq etish esa barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish orqali amalga oshirilishi lozim.



Barqaror rivojlanish – bu bugungi avlod ehtiyojlarini to'liq ta'minlagan holda, kelajak avlodlarning ham resurslardan foydalanish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymasdan olib boriladigan taraqqiyot modelidir. Bu model o'z mohiyatida "ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik" uchlik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu omillar o'zaro bir-birini to'ldirib, sinergetik natijaga olib keladi.

Mazkur konsepsiyada iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan samarali va oqilona foydalanishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy yondashuv ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, madaniy xilma-xillikni saqlash va ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan. Ekologik yondashuv esa tabiiy muhitning muvozanatini saqlash, ekotizimlarning barqaror faoliyat yuritishini kafolatlashga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish nazariyasining iqtisodiy asoslari Ye.R. Lindal va J.R. Xiks tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalarga tayanadi. Ularning yalpi daromadlarning maksimal oqimi haqidagi konsepsiyasiga ko'ra, iqtisodiy daromadlar shunday shakllanishi lozimki, bu jarayonda kapital zaxiralari saqlanib qolishi kerak. Ya'ni, iqtisodiy faoliyatda resurslar tejab-tergab ishlatilishi, ekologik xavfsiz texnologiyalar tatbiq etilishi, chiqindilar miqdori minimallashtirilishi va ekologik toza mahsulotlar yaratishga intilish asosiy shart sifatida ilgari suriladi.

Shunday qilib, barqaror rivojlanish konsepsiyasi faqat ekologik xavfsizlikni emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ham o'z ichiga olgan holistik yondashuvni nazarda tutadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasida eng muhim va muhokamali masalalardan biri – aynan qaysi turdagi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib qolishi lozimligi, ushbu kapital turlarining o'zaro o'rinbosarlik darajasi va ekologik resurslar kabi aktivlarning qiymatini qanday baholash kerakligi bilan bog'liqdir. Bu masala iqtisodiy barqarorlikka doir yondashuvlar orasida turli tafovutlarni yuzaga keltirdi va natijada barqarorlikning ikki asosiy modeli shakllandi.

Birinchisi – kuchsiz barqarorlik modeli bo'lib, unda barqarorlik tabiiy va jamg'arilgan kapitalning umumiy miqdori vaqt o'tishi bilan kamaymasligi orqali ta'minlanadi. Boshqacha aytganda, tabiiy resurslar kamaygan taqdirda ham, bu yo'qotish boshqa kapital turlari hisobidan qoplanishi mumkin, degan yondashuv ustuvor bo'ladi.

Ikkinchisi esa – kuchli barqarorlik modeli bo'lib, u tabiiy kapitalning aynan o'zini saqlab qolishni ustuvor deb hisoblaydi. Bu yondashuvga ko'ra, ayniqsa, qayta tiklanmaydigan resurslarni ekspluatatsiya qilishdan olingan daromadning bir qismini albatta qayta tiklanadigan resurslar qiymatini oshirishga yo'naltirish lozim. Bu modelda tabiiy kapital inson kapitali yoki boshqa resurslar bilan osonlikcha almashtirilishi mumkin emas, degan prinsip mavjud.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibi esa inson manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lib, u ijtimoiy tizimlarning barqarorligi, madaniy xilma-xillikni saqlash va jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan. Bunda ne'matlarning adolatli taqsimlanishi muhim ijtimoiy vazifa sifatida belgilanadi. Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga muvofiq, inson rivojlanishning faqat obyekt emas, balki faol subyekt hisoblanadi. Shuning uchun barqaror rivojlanish modeli inson tanlovlarini kengaytirish, hayot faoliyati, qaror qabul qilish va bu qarorlarni amalga oshirishda fuqarolarning bevosita ishtirokini nazarda tutadi.

Ekologik nuqtayi nazardan, barqaror rivojlanish jismoniy va biologik tabiat tizimlarining yaxlitligi, izchilligi va o'z-o'zini tiklash qobiliyatini saqlab qolishga qaratilgan. Bunda biosferaning barqarorligini ta'minlab beruvchi ekotizimlar, ularning turg'unligi va qayta tiklanish salohiyati muhim rol o'ynaydi. Tabiiy resurslarning degradatsiyasi, atrof-muhitning ifloslanishi va biologik xilma-xillikning kamayishi ushbu ekotizimlarning uzoq muddatli barqarorligini jiddiy xavf ostiga qo'yadi.

Barqaror rivojlanishga erishishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni muvofiqlashtirish murakkab, ammo zaruriy vazifa hisoblanadi. Bu uch komponent o'rtasida o'zaro ta'sir va uyg'unlikni ta'minlovchi mexanizmlar alohida o'rinni egallaydi. Masalan, iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlar jamiyatda ichki adolatni ta'minlash, daromadlar tengsizligini kamaytirish va ehtiyojmand qatlamlarga yo'naltirilgan ijtimoiy yordam choralari ko'rishni nazarda tutadi. Iqtisodiy va ekologik komponentlar esa atrof-muhitga iqtisodiy faoliyatdan kelib chiqadigan tashqi ta'sirlarni moliyaviy qiymatga aylantirish va ularni korxonalar hisobotlarida aks ettirish zaruratini ilgari surmoqda. Ijtimoiy va ekologik yondashuvlar esa avlodlararo adolat, kelajak avlod huquqlariga hurmat bilan yondashish, fuqarolik ishtirokini kengaytirish kabi dolzarb tamoyillarni ilgari surmoqda.

Hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va uning barqarorligini ta'minlash eng oliy maqsadlardan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanish maqsadlari har bir inson uchun farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqsadlar BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015–2030-yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan.

Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi 17 ta global maqsadni va ular bilan bog'liq 170 ga yaqin vazifani o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar:

1. qashshoqlikni yo'qotish;
2. ochlikni tugatish;
3. sog'liq va farovonlik;
4. sifatli ta'lim;



5. gender tengligi;
6. toza suv va sanitariya;
7. arzon va toza energiya;
8. munosib ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish;
9. sanoatlashtirish, innovatsiyalar, infratuzilma;
10. tengsizlikni kamaytirish;
11. barqaror shaharlar va qulay yashash joylarini yaratish;
12. mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish;
13. iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish;
14. dengiz ekotizimlarini asrash;
15. quruqlikdagi ekotizimlarni asrash;
16. tinchlik, adolat va samarali boshqaruv;
17. barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik.

O'zbekiston ushbu maqsadlardan 16 tasini milliyalashtirish va amalga oshirish vazifasini o'z oldiga qo'ygan. Respublika hududida dengiz havzalari mavjud bo'lmagani bois, 14-maqsad – dengiz ekotizimlarini asrash – O'zbekiston tomonidan milliyalashtirilmagan.

O'zbekiston 2017-yil 19-aprelda BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh Qarorgohida "O'zbekiston-Parij" Bitimini imzoladi¹. O'zbekistonning Parij bitimidagi faol ishtiroki mamlakatimiz uchun quyidagi manfaatlarni ta'minlaydi. Jumladan²:

- Energiya samaradorligi va energiya tejash bo'yicha Davlat dasturlarini amalga oshirishda iqlimiy moliyalashtirish resurslarini (asosan grantlarni) jalb qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, yer va suv resurslarini boshqarishni yaxshilash, salbiy oqibatlariga (Orol fojiasi, cho'llanish, qurg'oqchilik) qarshi kurashish va boshqa imkoniyatlardan foydalanish zarur (9-modda, 7-band);

- Parij bitimida ishtirok etish investitsiya resurslarini jalb qilish, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar va donor mamlakatlardan kreditlar olish uchun muhim indikator hisoblanadi;

- Iqlim o'zgarishlarini yumshatish va unga moslashish maqsadida yangi texnologiyalardan foydalanish, innovatsion texnologiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirish (10-modda);

- Iqlim o'zgarishiga moslashish sohasidagi hamkorlik mamlakatga iqlimiy zaiflikni kamaytirish va moslashish choralari amalga oshirish imkonini beradi, bu esa milliy manfaatlarni ilgari suradi. Ayniqsa, Orol fojiasi muammosini hal etish nuqtayi nazaridan bu yo'nalish alohida ahamiyat kasb etadi;

- Iqlim o'zgarishi natijasida yetkazilgan zararlar dalillar bilan asoslangan taqdirda, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlari donorlar tomonidan bartaraf etilishi mumkin;

BMTning Barqaror rivojlanish dasturi doirasida, xususan, barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sish, to'liq bandlik va munosib mehnat sharoitlarini yaratish (8-maqsad) hamda egiluvchan infratuzilma, keng qamrovli va barqaror industrializatsiyani rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish (9-maqsad) kabi maqsadlar qayd etilgan.

Mamlakatimizda 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash omillaridan biri ekanini yana bir bor tasdiqladi. Strategiyada belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, jumladan, Parij bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida, 2019-yilning 4-oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son³ qarori qabul qilindi.

Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi – mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini chuqur integratsiya qilish orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish hamda ekologik barqarorlikni mustahkamlovchi iqtisodiy o'sish modelini shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish jarayonida "yashil" o'zgarishlar nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik va ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilishi ko'zda tutiladi.

Strategiyani amaliyotga joriy etish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida ilg'or texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda barqaror moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish;

- Davlat investitsiyalari va budjet xarajatlari ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqish, bu jarayonga ekologik barqarorlikni ta'minlovchi xalqaro "yashil" standartlar asosida baholovchi mezonlarni joriy etish;

- "Yashil iqtisodiyot" doirasidagi tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish, moliyaviy rag'batlantirish choralari ko'rish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish;

¹ <https://lex.uz/docs/-3924460>

² https://unfccc.int/sites/default/files/english_paris_agreement.pdf

³ <https://lex.uz/docs/-4539502>



- "Yashil iqtisodiyot" uchun zarur bo'lgan inson kapitalini shakllantirish maqsadida ta'lim tizimiga investitsiyalarni kengaytirish, yetakchi xorijiy universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirish;

- "Yashil iqtisodiyot" bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish, jumladan, ikki va ko'p tomonlama ekologik shartnomalar tuzish orqali barqarorlik tamoyillarini transchegaraviy darajada uyg'unlashtirish.

Uzoq muddatli istiqbolda O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi quyidagi prinsipial tamoyillarga asoslanadi:

- Barqaror rivojlanishga oid milliy ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar bilan muvofiqlikni ta'minlash;

- Resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali ekologik yuklamalarni kamaytirish;

- Iqtisodiy baholash tizimlariga ekologik va ijtimoiy indikatorlarni integratsiya qilish, jumladan, korxona darajasidagi hisobotlarda ekologik ta'sir ko'rsatkichlarini aks ettirish;

- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalariga erishishda "yashil" yondashuv va innovatsion vositalarni ustuvor vosita sifatida qo'llash;

- Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish, ekologik xavfsiz "yashil" ish o'rinlarini yaratish, aholining turmush farovonligini yuksaltirish va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash;

- Resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq chora-tadbirlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish orqali xususiy sektor ishtirokini faollashtirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida belgilangan maqsad va ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, bir tomondan, milliy iqtisodiyotning ichki salohiyatini to'liq ishga solishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, barqaror va uzoq muddatli rivojlanish yo'lga chiqish uchun qulay zamin yaratadi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyot" asosida modernizatsiyalashgan iqtisodiy modelga o'tish orqali nafaqat raqobatbardoshlikni oshirish, balki aholining turmush sifatini yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan foydalanish madaniyatini tubdan o'zgartirish imkoniyati yuzaga keladi.

Milliy iqtisodiyotda "yashil" yondashuvni keng joriy etish, ayniqsa, resurslardan samarali foydalanish va chiqindisiz texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish zanjirining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash imkonini kengaytiradi va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Natijada, eksport hajmining ortishi, mahsulotlarning tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashuvi va ekologik toza mahsulotlar ulushining ko'payishi orqali tashqi bozorlarda milliy kompaniyalarning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Shuningdek, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladigan islohotlar, milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro "yashil standartlar"ga moslashuvchanligini kuchaytiradi. Bu esa, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuv darajasini oshirish, xorijiy investitsiyalar uchun iqtisodiyotning jozibadorligini ko'paytirish va global ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik talablar asosida mahsulot ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish orqali iste'molchilarning sog'lig'i va hayot sifati uchun xavfsiz sharoitlar yaratiladi.

Ekotexnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, innovatsion yechimlarga asoslangan "yashil" ish o'rinlarini yaratish va ushbu jarayonlarga xususiy sektorni jalb qilish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini yangi bosqichga olib chiqish mumkin bo'ladi. Natijada, iqtisodiy o'sish faqat raqamlar darajasida emas, balki sifat jihatidan ham barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz bo'ladi. Bu esa, uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikning tayanch omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, "yashil iqtisodiyot"ni barqarorlashtirish – bu nafaqat ekologik siyosat, balki chuqur iqtisodiy strategiyadir. U milliy iqtisodiyotda yuqori texnologiyali, ekologik xavfsiz va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali global raqobatda yutish imkonini beradi. Aynan mana shu yo'l bilan O'zbekiston iqtisodiyoti kelajakda iqlim o'zgarishlariga bardoshli, ekologik jihatdan mas'uliyatli va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiy modelga ega bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-oktyabrdagi "Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi O'RQ-491-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3924460>
2. O.X. Xudoyberganov, M.Usmonov. Yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy mexanizmlari. – T.: Iqtisodiyot, 2022. – 224 b.
3. N. Stern. The Economics of Climate Change: The Stern Review. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 692 p.



4. M. Mazzucato. The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. – London: Anthem Press, 2013. – 272 p.
5. J. Sachs. The Age of Sustainable Development. – New York: Columbia University Press, 2015. – 544 p.
6. M. Yunus. Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism. – New York: PublicAffairs, 2008. – 320 p.
7. Ma Jun. China's Green Finance Reform and Green Development. – Beijing: China Finance Publishing House, 2017. – 258 p.
8. United Nations Environment Programme. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: UNEP, 2011. – 632 p.
9. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook 2018: Greening with Jobs. – Geneva: ILO, 2018. – 240 p.
10. OECD. Green Growth Indicators 2019. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 160 p.
11. https://unfccc.int/sites/default/files/english_paris_agreement.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>